



## BOSHLANG‘ICH SINIF “O‘QISH SAVODXONLIGI” VA FANLARIDA O‘QUVCHILAR KOMMUNIKATIV NUTQINI RIVOJLANTIRISHGA OID MEDIATEXNOLOGIYALAR VOSITASIDAN FOYDALANISH METODIKASI

*Bekberganova N.O.*

*Urganch innovatsion universiteti stajyor-o‘qituvchisi  
Urganch davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi*

**Tayanch soʻzlar:** boshlang‘ich sinf, o‘qish savodxonligi, kommunikativ nutq, mediatexnologiyalar, metodika, interaktiv o‘yinlar, dasturlar, o‘qituvchilar, til boyligi, talaffuz, matnni tushunish, xavfsizlik, samaradorlik, integratsiya.

**Ключевые слова:** начальный класс, грамотность чтения, коммуникативная речь, медиатехнологии, методика, интерактивные игры, программы, преподаватели, языковое богатство, произношение, понимание текста, безопасность, эффективность, интеграция.

**Key words:** elementary class, reading literacy, communicative speech, media technologies, methodology, interactive games, programs, teachers, language richness, pronunciation, text comprehension, safety, efficiency, integration.

### **Резюме:**

Zamonaviy ta’lim muassasalarida barcha sohalarda bo‘lgani kabi sifat masalasi birinchi o‘ringa ko‘tarilmoqda. Bu o‘z o‘rnida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida “O‘qish savodxonligi” fanlarida kommunikativ nutqni rivojlantirishga turtki bo‘lmoqda. Maqolada zamonaviy mediatexnologiyalarni ta’lim jarayoniga qanday samarali integratsiya qilish mumkinligi, o‘quvchilarning nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan interaktiv o‘yinlar va dasturlar, shuningdek, o‘qituvchilar uchun mediatexnologiyalarni qanday qilib samarali va xavfsiz qo‘llash bo‘yicha so‘z yuritiladi.

### **Резюме:**

В современных образовательных учреждениях, как и во всех сферах, на первый план выходит вопрос качества. Это, в свою очередь, мотивирует развитие коммуникативной речи по предметам «Читательская грамотность» у учащихся начальных классов. В статье рассказывается о том, как эффективно интегрировать современные медиатехнологии в учебный процесс, проводятся интерактивные игры и программы, направленные на развитие речевых навыков учащихся, а также как эффективно и безопасно использовать медиатехнологии для учителей.

### **Summary:**

In modern educational institutions, as in all fields, the issue of quality comes to the fore. This, in turn, motivates the development of communicative speech in the subjects of “Reading literacy” among primary school students. The article talks about how to effectively integrate modern media

technologies into the educational process, interactive games and programs aimed at developing students' speaking skills, as well as how to use media technologies effectively and safely for teachers is held.

**Kirish.** Zamonaviy ta'lim jarayoni o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish va ularning kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan yangi yondashuvlar va metodlarni talab etadi. Xususan, boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligi va boshqa fanlarida kommunikativ nutqini rivojlantirish maqsadida mediatexnologiyalardan foydalanish dolzarbligi bevosita o'qituvchilarning pedagogik faoliyatini yangilaydi. O'quvchining kommunikativ nutqi – bu uning fikr, his-tuyg'ular va fikrlarini ifoda etish qobiliyatidir. Bunday ko'nikmalarni rivojlantirish esa, kelajakda o'quvchilarning ijtimoiy hayotida muvaffaqiyatga erishishlari uchun zarur. Bugungi kunda, mediatexnologiyalar, jumladan, interaktiv dasturlar, videolar, onlayn platformalar va ta'lim uchun mo'ljallangan multimedia resurslari o'quv jarayonini yanada samarali va qiziqarli qilishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu metodika o'quvchilarning o'qish savodxonligini, fikrlash qobiliyatini va boshqa fanlardan o'zlashtirishni oshirish maqsadida mediatexnologiyalarni qanday qilib samarali va innovatsion tarzda qo'llashga qaratilgan. Shuningdek, kommunikativ nutqni rivojlantirishda o'quvchilarning mustaqil fikrlash va muammolarni hal etish qobiliyatini oshirishga yordam beradi. Shu bilan birga, o'quv jarayonida mediatexnologiyalardan foydalanish o'quvchilarning motivatsiyasini oshirish, ularni faol ishtirok etishga undash va o'qish jarayonini jonlantirishga xizmat qiladi.

**Adabiyotlar tahlili.** O'zbekistonlik va xorijlik olimlarning ko'plab tadqiqotlari kommunikativ nutq tushunchasining nazariy asoslarini o'rganishga bag'ishlangan. Masalan, D.D.Jalilovning maqolasida kommunikativ kompetensiyani shakllantirishning tarkibiy, model, ishlab chiqilgan bo'lib, u o'quvchilarning ta'lim va ijtimoiy tajribasini, o'qitishning faol usullarini hisobga olgan holda faoliyat, izchillik tamoyillariga asoslanishi haqida so'z boradi. [1] 2018-yilda N.P.Ivanovna “Kichik maktab o'quvchisining nutq kompetensiyasini rivojlantirish: nazariya va amaliyot” haqida aytib o'tgan. [2] N.D. Galskova va N.I. Gez tomonidan tayyorlangan “Yozma va og'zaki kommunikatsiya va uning nazariyasi” asarlarida nutq va kommunikatsiyalarning o'zaro bog'liqligi, shuningdek, tilning muhim ijtimoiy rolini ko'rsatadi. Ularning tadqiqotlari, shuningdek, kommunikativ nutqning asosiy xususiyatlarini, ya'ni aniq va mazmunli ifoda qilishni ta'kidlaydi. Nutqiy rivojlanish jarayonini A.N.Leontev quyidagicha tavsiflaydi: “Nutqni o'stirish va rivojlantirish jarayoni bola lug'atining va so'zlarning assotsiatsiya asosida bog'lanishining ortishida ifodalanadigan miqdoriy o'zgarishlar, balki sifat jihatdan o'zgarish jarayonidir,




zero u fikrlash va ong rivojlanishi bilan ichki bogʻlangan holda soʻzning barcha funksiyalari, tomonlari va aloqalarini qamrab oladigan haqiqiy rivojlanish jarayonidir” [3]. Bolalar nutqini oʻstirishda turli xil didaktik oʻyinlarni tez-tez tashkil etish yoʻli bilan berilayotgan bilimni tez oʻzlashtirish imkoni tugʻiladi. Agar oʻyin bolalarga dinamik tarzda oʻrgatilsa, ular oʻyinni oʻrganib olganlarini sezmay qoladilar, oʻyin jarayonida oʻquv materiallarini puxta oʻzlashtirishga qiynalmaydilar. “Oʻyinlar bolalarning toʻgʻri oʻsishida juda muhim rol oʻynaydi. Bola oʻyinga butun borligʻi bilan kirishib ketadi. Oʻyin jarayonida uning nutqi tez rivojlanadi.” [4]

**Tadqiqot metodologiyasi.** “Oʻqish savodxonligi” fani darslarida mediateknologiyalarni qoʻllash orqali oʻquvchilarning kommunikativ nutq koʻnikmalari, jumladan, gapirish, tinglash, oʻqish va yozish koʻnikmalari sezilarli darajada rivojlanadi. Jumladan, “Oʻqish savodxonligi” darsligida berilgan “Shirin uyqu” ertagi quyidagicha yoritiladi:

Bir odamning uchta oʻgʻli bor ekan. Shu odam vafot etayotganida bolalariga: “Uyquni shirin qilib uxlang, ovqatni shirin qilib yeng”, deb vasiyat qilibdi. Bu gapni ikkita katta oʻgʻli bir xil tushunibdi, kichik oʻgʻli esa boshqacha tushunibdi. Ikkita katta akasi yerga suv sepib, chorpoyni qurib, katta koʻrpani toʻshab, “uyquni shirin qilish” shunday boʻladi-da, deb yotaveribdi. Keyin ust-ustiga har xil shirin taomlarni yeb, “ovqatni shirin qilib yeyish” mana bunaqa boʻladi, deb yuraveribdi. U yoqqa agʻanab, bu yoqqa agʻanab, yota-yota ovqatlari ham singmay, yegan ovqatining ham, uxlagan uyqusining ham mazasini bilmabdi. Oxir-oqibat, yeyishga ovqatlari qolmay, kambagʻal boʻlib qolishibdi. Kichkinasi ishlab-ishlab kelib, yegan quruq noni ham shirin, ichgan choyi undan shirin, uxlasa uyqusi ham shirin boʻlar emish. Shunday qilib, uning borgan sari davlati ziyoda boʻlib, uyqusi shirin, ovqati mazali boʻlib boravergan ekan.

Ertak video koʻrinishida oʻquvchilarga qoʻyib beriladi. Qoʻshtirnoq ichidagi



birikmalarga alohida urgʻu beriladi. Keyin “savollarga javob” boʻlimiga oʻtiladi va savollar televizorda qoʻyib eshittiriladi. Oʻquvchilar esa savollarga taxminan quyidagicha javob berishadi.

Savollar?

1. Ota bolalariga nima deb vasiyat qilgan ekan?

“Uyquni shirin qilib uxlang, ovqatni shirin qilib yeng”, deb vasiyat qilibdi.

2. Bu vasiyatni bolalari qanday tushunishdi?

Bu gapni ikkita katta o‘g‘li bir xil tushunibdi(yeb yotaveribdi va kambag‘al bo‘lib qolishibdi), kichik o‘g‘li esa boshqacha tushunibdi(ishlab-ishlab kelib, yegan quruq noni ham shirin, ichgan choyi undan shirin, uxlasa uyqusi ham shirin bo‘lar emish. Shunday qilib, uning borgan sari davlati ziyoda bo‘lib, uyqusi shirin, ovqati mazali bo‘lib boravergan ekan).

3. Ayting-chi, ota vasiyatini qaysi o‘g‘il to‘g‘ri tushunolgan ekan?

Kichkina o‘g‘il.

Fikringizni izohlang.

Kichkinasi ishlab-ishlab kelib, yegan quruq noni ham shirin, ichgan choyi undan shirin, uxlasa uyqusi ham shirin bo‘lar emish. Shunday qilib, uning borgan sari davlati ziyoda bo‘lib, uyqusi shirin, ovqati mazali bo‘lib boravergan ekan.

4. Uyqu shirin bo‘lishi mumkinmi? Ha.

Nima uchun? Qattiq charchasa.

5. Siz qanday yo‘l tutgan bo‘lardingiz?

Men ham xuddi kichik o‘g‘il kabi yo‘l tutgan bo‘lar edim.

6. Ertakdan chiqargan xulosangiz bilan o‘rtoqlashing.

O‘quvchilardan birma-bir xulosalari tinglanadi va oxirida umumiy o‘qituvchi o‘quvchilarning xulosalarini umumiyLashtirgan holda o‘z xulosasini aytadi. Xulosa shuki, har bir aytilgan so‘zning, gapning ma‘nosini, mohiyatini yaxshi anglash kerak. Video oxiridagi xulosa ham o‘quvchilarga eshittiriladi. Video va o‘qituvchining xulosasi bir xil bo‘lishi kerak. Shundagini o‘quvchilar xulosani eslab qolishadi va o‘zlari xulosa chiqarishni o‘rgana borishadi. Undan keyin “lug‘at ishi” bo‘limi ochiladi va u yerda o‘quvchilarga notanish bo‘lgan so‘zlar ma‘nolari bilan qo‘yib eshittiriladi.

**vasiyat-** o‘z yaqinlariga qoldirgan topshiriq, istak, nasihat

**chorpoya** - ochiq havoda o‘tirishga, yotishga mo‘ljallangan yog‘och karavot

**davlati ziyoda-** boy, badavlat

“Qahramonlarga ta‘rif” bo‘limida ertak qahramonlariga baho beriladi.

Ota- uzoqni ko‘rgan, mulohazali, keng fikrli kishi.

Akalar- gapni fikrlamaydigan, aytilganni bajaradigan insonlar.

Uka- dunyoqarashi keng, har bir gapni ma‘no- mazmuni haqida fikr yuritib, keyin ish ko‘radigan inson.

“Savollar gulshani” bo‘limi. Ertak asosida savollar tuzing. Savollaringizni o‘qib bering va do‘stlaringizning javobini eshiting.

Savollar gulshani

Nima uchun? Ota nima uchun farzandlariga bunday nasihat qildi?

Nega? Nega otaning vasiyatini katta akalar boshqacha tushundi?



Kim? Farzandlarning ichida kim aqlliroq?

Qanday? Kichik o'g'il qanday yo'l tutdi?

Nima? Kichik o'g'ilni nima badavlat qildi?

Qachon? Ota qachon bolalariga bunday vasiyat qildi?

“Qayta hikoyalash” bo'limi. Bunda o'quvchilar darsda egallagan bilimlari asosida tushunganlarini gapirib berishlari kerak bo'ladi. An'anaviy dars uslubidan ko'ra mediatexnologiyalarni shu tartibda qo'llab dars o'tilsa, o'quvchilarning kommunikativ nutqi rivojlanadi, fikri teran bo'ladi.

“Uy ishi” bo'limida ertakni o'qib va mazmunini so'zlab berish kerak bo'ladi. Ertak mazmuniga mos maqollar topish vazifa qilib beriladi.

Zamonaviy mediatexnologiyalarni qo'llash mintaqaviy va global miqyosda kommunikativ nutqni rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. M.A.Sadikova ishlarida interaktiv platformalar, videolar va audiolar orqali kommunikativ nutqni rivojlantirishning samaradorligi ko'rsatib o'tilgan. Ularning tadqiqotlari, o'quvchilarni informatika va kommunikativ texnologiyalardan maqbul ravishda foydalanishlari uchun taqdim etiladigan imkoniyatlarni ko'rsatadi.

**Tahlillar va natijalar.** Kommunikativ nutq haqida olib borilgan tadqiqotlar va adabiyotlar ko'plab nazariy asoslarni, pedagogik yondashuvlarni va zamonaviy mediatexnologiyalarni o'z ichiga oladi. Ushbu adabiyotlar, kommunikativ nutqni ishlab chiqish va o'quv jarayoniga integratsiya qilishda o'qituvchilarga yordam beradi. Natijada, talabalar nafaqat o'z fikrlarini aniq bayon qilishda, balki o'zaro muloqotda ham samarali ishtirok etish uchun yuqori darajada tayyorlanadilar.

**Xulosalar.** “O'qish savodxonligi” darslarida mediatexnologiyalarni oqilona va maqsadli qo'llash o'quvchilarning kommunikativ nutqini rivojlantirishga sezilarli yordam beradi. Bu esa o'quvchilarning tilga bo'lgan qiziqishini, til boyligini, nutq madaniyatini va fikrlash qobiliyatini shakllantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

#### Adabiyotlar:

1. D.Djalilova. “Kommunikativ nutqni rivojlantirishning amaliy asoslari” - akademik research in educational sciences.2021-yil, 84-91-betlar.
2. K.Nazarova. “Boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutqiy kompetensiyani rivojlantirish jarayonini loyihalashning mavjud holati tahlili” - Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar. 2023-yil, 242-245-betlar.
3. Z.Xushbaqova “Boshlang'ich sinflarda nutqiy savodxonlikni rivojlantirish” - “Ta'lim sifati yangi O'zbekiston taraqqiyotini yanada takomillashtirishning muhim omili” jurnali, - 645-650-betlar.
4. N.Adizova “Boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqini o'stirishda mustaqil ishlarning o'rni va ahamiyati” - Scientific progress, 1010-1016-betlar. 2021-yil